

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 RAQMLI ILMY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

ABRAYEVA SEVARA TOSHEMIROVNA

**CHANGLATISH VA ION IMPLANTATSIYA USULLARI BILAN Ge
YUZASIDA HOSIL QILINGAN NANOSTRUKTURALARNING
ELEKTRON TUZILISHI VA OPTIK XOSSALARI**

01.04.04 – Fizik elektronika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral philosophy
(PhD) on physical-mathematical sciences**

Abraeva Sevara Toshtemirovna

Changlatish va ion implatatsiya usullari bilan Ge yuzasida hosil qilingan nanostrukturalarning elektron tuzilishi va optik xossalari.....5

Абраева Севара Тоштемировна

Электронные и оптические свойства наноструктур, созданных на основе германия методами осаждения и ионной имплантации.....23

Abraeva Sevara Toshtemirovna

Presentation on the electronic and optical properties of nanostructures on the surface of Ge by pollination and ion implantation methods..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works47

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 RAQMLI ILMIY KENGASH

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

ABRAYEVA SEVARA TOSHTEMIROVNA

CHANGLATISH VA ION IMPLANTATSIYA USULLARI BILAN Ge
YUZASIDA HOSIL QILINGAN NANOSTRUKTURALARNING
ELEKTRON TUZILISHI VA OPTIK XOSSALARI

01.04.04 – Fizik elektronika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM720 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tashmuhamedova Dilnoza Artikbayevna
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyev Bahrom Egamberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sa’dullayev Alovuddin Boboqulovich
fizika – matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.FM.70.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel./faks:(99875) 225-34-13, email: kardu@mail.ru. Qarshi davlat universiteti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel./faks: (99875) 225-34-13

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2024 yil “_____” _____ dagi №____ raqamli reestr bayonnomasi).

Normuradov M.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Allayarova G.X.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi fizika-matematika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Tashatov A.K.

Ilmiy kengash xuzuridagi ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda nanoo'lchamli plyonkalarni olish va ularni turli sohalarda, jumladan, nano- va mikroelektronika sohasida, quyosh batareyalari, optik-elektron qurilmalarning aktiv elementlari va boshqalarda qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda, ayniqsa yarimo'tkazgichlar, xususan kremniy va germaniy ushbu sohalarni rivojlanishida asosiy xom – ashyo hisoblanadi. Jahonda so'nggi yillarda sof yarimo'tkazgichli, hamda turli tarkibli yarimo'tkazgichli strukturalariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yuqori tozalik darajasi har bir material uchun o'ziga xosdir, biroq materialning zaryad tashuvchilarining konsentratsiyasidan yarimo'tkazgichdagi qoldiq aralashmalarning umumiy konsentratsiyasi yuqori bo'lmasligi kerak. Misol uchun, germaniy uchun $u \leq 2 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga teng. Si, Ge va boshqa yarimo'tkazgichlarning yuza xususiyatlarini to'laligicha nazorat qilish, ion implantatsiya qilinmagan qattiq jismda sodir bo'ladigan bir-biriga taaluqli bo'lmagan turli jarayonlarga bog'liqdir. Shuning uchun ion implantatsiya qilingan materiallarning yuza holatini elektron spektroskopiya va mikroskopiya usullaridan foydalangan holda har tomonlama ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hozirgi vaqtda molekulyar nurli epitaksiyasi, termik o'tqazish va ion implantatsiyasi usullari bilan olingan Ge nanoplyonkalari va kvant nuqtalari asosidagi nano o'lchamli tizimlarning tarkibi, tuzilishi, fotoelektrik va optik xususiyatlari yaxshi o'rganilmoqda. Xususan, dunyoda birinchi marta c-Si sirtiga Ge^+ va Ag^+ ionlari bilan ketma-ket yuqori dozali implantatsiya qilish orqali Ag:GeSi plazmon kompozit materialini yaratish imkoniyati o'rganilgan. Ge^+ ionlari bilan implantatsiya Si qatlami sirtining amorfizatsiyasi bilan birga mayda donachali GeSi kompozit qatlamini hosil qiladi. Dunyodagi ayrim olimlarning ishlarida plyonkalardagi amorf va kristall fazalarning foiz nisbatini o'zgartirish orqali (bu plyonka olish rejimlari bilan belgilanadi), qo'shimcha ta'sirlarsiz (legirlash, nurlanish va boshqalar) hosil bo'lgan Ge nanokompozit plyonkalarining taqiqlangan zona kengligini boshqariladigan tarzda o'zgartirish mumkinligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda elektronika sohasini rivojlantirish uchun ko'plab yangi texnologiyalar yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni ishlab chiqarishga tadbir qilish bo'yicha, boshqa sohalar bilan bir qatorda, ko'plab ilmiy - amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ko'plab dolzarb fizik va amaliy muammolar ushbu masalalarni hal qilishga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining "Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti" da elementar va binar yarimo'tkazgichlar asosidagi nanoo'lchamdagi plyonkalarni sintez qilish, ularning kimyoviy tarkibi, elektron tuzilishi, fizik xususiyatlarini aniqlash hamda p-tipli CrSi_2 yupqa plyonkalari asosida termobatareyalar va fotoelementlar tayyorlash bo'yicha ilmiy ishlanmalar va innovatsion loyihalar yuzasidan vazifalar belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, mikro va optoelektron

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yildagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

qurilmalar ishlab chiqarishda kichik energiyali ion implantatsiyasini qo'llash ko'lamini kengaytirishga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, kichik energiyali ion implantatsiyalangan qattiq jismlarning yuza va yuza osti sohalarida yuzaga keladigan fizik va kimyoviy jarayonlarning mexanizmlarini chuqurroq tushunish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "2030 yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasi"², 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning energiya samaradorligini oshirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini keyingi rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"³gi qarorlari, shuningdek, so'nggi yillarda respublikada bu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi II. "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" va III. "Zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlik sohalarini rivojlantirish" fan va texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda dunyoning bir qator ilmiy markazlari Ge va Si oksidlarining yer yuzasida va yer yuzasiga yaqin sohasida yaratilgan nano o'lchamlardagi tuzilishlarning fizik-kimyoviy xossalari olish va tadqiq qilish bilan shug'ullanmoqda. Bu borada so'nggi vaqtda hind olimlari Ray S.K., Singha R.K. va boshqalar tomonidan molekulyar-nurli epitaksiya usuli yordamida Si(001) va SiO₂ sirtida Ge kvant nuqtalari olingan va ularning tuzilishi va optik xossalari o'rganilgan. Ular Ge nuqtalaridan infraqizil fotolyumenestsentsiya signali orolchalarining o'lchamlariga va Si/Ge aralashmasiga bog'liqligini o'rganishgan. Walters R.J. va Arwater H.A. (Kaliforniya Texnologiya Instituti) o'stirishning birinchi bosqichida Ge negiz sathlari piramidal shaklga ega bo'lishini aniqlashgan. Stavarache I., Valentin A.M. (Materiallar fizikasi milliy instituti, Ruminiya) 300, 400 va 500 °C bo'lganda Ge nanozarrachalari SiO₂ va Ge moddalarini tagliklarga bevosita birgalikda o'tqazishda shakllanishini ko'rsatishgan. Strasburg universiteti olimlari Fourches N., Postnikov A. va boshqalar Ge⁺ moddasining kremniyga yuqori energetik implantatsiyalashning nuqsonlar tufayli mexanik xususiyatlarning o'zgarishlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilgan. Stepanov A.L., Valliev V.F. va boshqalar Ag⁺ Nikolichev D.E. skanerlaydigan oje-mikroskopiya usulida o'z-o'zidan tashkil etilgan Ge_xSi_{x-1}/Si nanoklasterlarining tarkibini tadqiq qilishgan. Qalinligi bir necha nanometrlar bo'lgan kremniyning qoplama qatlamini qoplanishi profilning sezilarli

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "2030 yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini keyingi rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

o'zgarishlariga olib kelmasligi ko'rsatilgan, bu kremniy qatlamini o'stirishning past harorati (45 °C) bilan bog'liqligi aniqlangan. Patrone L., Sentis M., Ledoux va G. va boshqalar fotolyuminesentsiya polosalar maksimumlarining holatlarini kremniy nanokristallari o'lchamlariga bog'liqligini tavsiflaydigan kvant-o'lchamli modelni ishlab chiqishgan.

Normurodov M.T., Umirzoqov B.E., Risbayev A.S., Tashmuxamedova D.A. va ularning shogirdlari birinchi bo'lib Si, Ge, SiO₂ yuza sohasida nano o'lchamlardagi tuzilishlarni olishgan va ularning elektron va kristall strukturasi o'rganishgan.

Shu bilan birga changlatish va ion implantatsiya usuli bilan Ge yuzasida nanoo'lchamli yupqa plyonkalar hosil qilish, hamda ularning elektron tuzilishi, yuza sirtining morfologiyasi, elektrofizik va optik xususiyatlari deyarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. "Turli tabiatdagi (metall, yarimo'tkazgich, dielektrik) materiallarning elektron, kristall tuzilishi va xossalari past energiyali, yuqori dozali ionlarni implantatsiyalash va keyingi termik, IQ va lazerli qizdirish (yumshatish) bilan modifikatsiyalash" ilmiy rejasi va "BaSi₂ Ba Mn₄Si₇ nano o'lchamlardagi termoelektr yupqa qatlamlarning shakllantirish va ularning xususiyatlari" №Ф-ОТ-2021-422 loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ge yuzasida atomlarni changlatish va ion implantatsiya usuli yordamida germanidlarning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash hamda bu ta'sirlar natijasida ularning elektron va optik xususiyatlarining o'zgarish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ba atomlarini o'tqazish va keyingi qizdirishlarda Ge(111) ning tarkibi, elektron tuzilishi, emission va optik xossalari o'zgarish dinamikasiga ta'sirini, hamda yupqa nanoo'lchamli germanid plyonkalarini olishda ion implantatsiya va keyingi qizdirishning optimal texnologik rejimlarini aniqlash;

SrF₂ (111) yuzasida ideal kristalli tuziliashga ega va silliq ultra yupqa Ge plyonkasini olish metodikasini ishlab chiqish;

Ar⁺ ionlari bilan bombardimon qilishning Ge(111) elektron strukturasi ta'sirini o'rganish. Ion bombardimon qilingan vaqtda valent elektronlari zichligining o'zgarish mexanizmini nazariy tushuntirish;

Na⁺ ionlari bilan implantatsiya qilinganda Ge ning fotoelektron spektrlaridagi o'ziga xosliklarni, hamda Na⁺ va Ba⁺ ionlarining implantatsiyasi, keyingi qizdirish va lazerli ishlov berishning Ge(111) yuzasining tarkibi, kristall va elektron strukturasi ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ge monokristall namunalari va yupqa qatlamlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Ion implantatsiya jarayonida germaniy yuzasida nanokristallar va nanoqatlamlarning shakllanishi qonuniyatlari va fizik mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Oje – elektron spektroskopiyasi (OES), ultrabinafsha fotoelektron spektroskopiyasi (UBFS), elastik qaytgan elektronlar spektroskopiyasi

(EQES), xarakterli energiyasini yo'qotgan elektronlar spektroskopiyasi (XEYES), katta energiyali elektronlar difraksiyasi (KEED), rastri elektron mikroskopiya (REM), UV-1280 tipidagi spektrofotometr, to'rt zondli o'tkazuvchanlikni o'lchash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bariyini changlatish va keyingi qizdirish jarayonida Ge(111) yuzasi tarkibi, elektron va kristall tuzilishi o'zgarishlarining asosiy qonuniyatlari (chiqish ishining kamayishi, σ_m va Y oshishi), hamda yupqa nano'lchamli germanid plyonkalarini olishda ion implantasiya energiyasi $E_0 = 0,5 \text{ keV}$, $D = 6 \cdot 10^{16} \text{ cm}^{-2}$ dozada va keyingi qizdirish ($T = 850 \text{ K}$) ning optimal texnologik rejimlari aniqlangan;

oldindan Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilish usulidan foydalanib SrF_2 (111) yuzasida $T=750 \text{ K}$ da changlatish usuli bilan olingan Ge plyonkasining adgeziyasi ortadi va Ge/ SrF_2 sistemasida qalinligi 25 – 30 Å bo'lgan bir jinsli, o'ta yupqa monokristall Ge(111) plyonkasi (o'tish qatlami) hosil bo'lishi aniqlangan;

Ge(111) yuzasini Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilishning kristall va elektron tuzilishiga ta'siri, ya'ni holat zichligi sezilarli darajada o'zgarishi kuzatilishi, bu esa o'z navbatida asosan yuzaga yaqin qatlamlarning buzilishi bilan tushuntirilishi aniqlangan;

Na^+ ionlari bilan implantasiya qilingan Ge ning valent elektronlar zichlik holatining o'zgarish dinamikasi, hamda Ge(111) ni Na ionlari implantasiyasi va keyingi qizdirish natijasida NaGe va NaGe_2 germanidlarining hosil bo'lish mexanizmlari va $T=850 \text{ K}$ haroratda Ge(111) yuza osti qatlamining to'liq kristallanishi va NaGe_2 tipidagi birikma hosil bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

$T=750 \text{ K}$ bo'lganda SrF_2 yuzasini dastlabki bombardimon qilish usulida changlanadigan Ge yupqa qatlamlarining yopishqoqligi oshgan, bu yuqori mukammal silliqlikka ega epitaksial Ge yupqa qatlamlarini olish imkonini bergan;

termik qizdirish yordamida aktiv elementning konsentratsiyasi chuqurligi bo'yicha monoton kamayadigan qatlamlarni olish mumkinligi o'rganilgan. Lazerli qizdirish natijasida ionli-legirlangan qatlam va matritsa o'rtasida keskin chegara vujudga kelgan;

EQE spektrida M_{45} Ge(111) negiz sathi eng yuqori qiymatining holati argon ionlari bilan bombardimon qilinishida deyarli o'zgarmagan, natriy ionlari bilan bombardimon qilinishida u kichik energiyalar tomon siljigan, kislorod ionlari bilan bombardimon qilinishida esa katta energiyalar tomonga siljigan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Elektron spektroskopiya va yuqori aniqlikdagi yuza diagnostikasining zamonaviy usullaridan foydalanish, ultra yuqori vakuum sharoitlarida tajribalar o'tkazish va toza namunalar uchun natijalarning boshqa mualliflarning ma'lumotlari bilan yaxshi muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati berilgan xususiyatlarga ega yangi materiallarni shakllantirish bo'yicha nazariyasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yupqa qatlamlarni adsorbsiyalash va ionlarni implantatsiyalashda Ge(111) tarkibi, elektron tuzilishi, emission va optik xossalarning o'zgarishlariga olib keladigan qonuniyatlar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati funksional elektronika asboblarini ishlab chiqishda ishlatilishi mumkin bo'lgan geterotuzilmali Ge/SrF₂ nano yupqa qatlamli tuzilish, hamda ko'rinadigan va IQ diapazonlarda ishlaydigan nanoelektron qurilmalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan yuqori sezgirlikka ega bo'lgan NaGe₂ germanidlar olinish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Changlatish va ion implantatsiya usullari bilan Ge yuzasida hosil qilingan nanostrukturalarning elektron tuzilishi va optik xossalarini o'rganishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Yarimo'tkazgichlarning yuza va yuza osti sohalarida nano o'lchamlardagi metall silitsidlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqot natijalari, shuningdek, silitsidlar va germanid-germaniy-metall geterotizimlarini hosil bo'lishi algoritmi Uzb-Ind-2021-78 "Metal oksidi bilan legirlangan silikatlarda termo-elekr xossalari va o'z-o'zini tashkil qilish jarayonlari" loyahasini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yilning 17-yanvardagi 01/11-590-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kremniy dioksididan samarali va arzon termoelektrmateriallarni olish va uning asosida yuqori quvvatli energetikada, yupqa qatlamli silitsid va silikat shishalarida keng foydalanish uchun mo'ljallangan nanotizimlarni yaratish yo'llarini aniqlash imkonini bergan. Termoelekr hodisalarga asoslangan zamonaviy tenzometrik datchiklarni yaratish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan;

olingan natijalar asosida panjara parametrlari, kristall tuzilishining mukammallik darajasi aniqlangan, shuningdek energiyaga, nurlanish dozasi va implantatsiyadan keyingi qizdirishga bog'liq ravishda Ge va Si yuzasining kichik energiyali ion implantatsiya qilib olingan turli yupqa nano qatlamli tizimlarning atom strukturasi modellari ishlatilgan. Aktiv metall ionlarini kremniy namunalari ga implantatsiyalashda aralashma atomlarining chuqurlik bo'yicha taqsimlanishi ularning turiga bog'liq ravishda ionli qatlamda yoki legirlanmagan Si sohasida ortishi aniqlangan. Quyosh elementlarida ishlatiladigan germaniy va kremniy namunalari ni ionlar bilan implantatsiyalashda yuza qatlamlarining solishtirma qarshiligi, ikkilamchi elektron emissiya (IEE) koeffitsiyenti va yorug'likni qaytarish koeffitsiyentlarining o'zgarishi aniqlandi va "FOTON" AJda aralashma atomlari bilan legirlangan Si va Ge asosida yaratilgan yuqori yorug'lik sezgirlikka ega material olishda qo'llanilgan ("O'zeltexsanoat" AJ dan 2024 yil 30 yanvardagi 04-3/142-sonli ma'lumotnoma). Ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash yuqori sezgirlikka ega yorug'lik datchiklarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (Respublika miqyosidagi, xorijiy jurnalda va Scopus ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 114 bet matndan, shu jumladan 42 ta rasm va 7 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya ishning dolzarbligi va zarurati, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotni Respublika fan va texnologiyalar rivojlanish ustuvor yo'nalishiga mosligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etilishi va aprobatsiya natijalari hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning "Ge va Si plyonkalarining strukturasi va fizik xossalarini o'rganish bo'yicha adabiyotlar tahlili" deb nomlangan I-bobida, epitaksiya, termik diffuziya va ion implantatsiyasi jarayonlarida kremniy va germaniy yuzasida bariy va natriy yupqa silitsid va germanid qatlamlarining shakllanishi qonuniyatlarini tadqiq qilishga va ularning elektron tuzilishi, emission, optik va elektrofizik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ishlarning qisqacha adabiyotlar sharhiga bag'ishlangan. Bob oxirida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib adabiyotlar sharhiga xulosa berilgan.

Dissertatsiyaning "Eksperimental tadqiqotlar usullari" deb nomlangan II-bobida yuzani tozalash usullari, Ge monokristalining yuzasini tozalash, ion implantatsiyasi va keyingi termik qizdirish, shuningdek, ularni ishlash jarayonlarini qisqacha tavsifi, Ge monokristallarining yuza va yuza osti qatlamlarini o'rganish uchun qo'llaniladigan zamonaviy usullar: Oje – elektron spektroskopiyasi, ultrabinafsha fotoelektron spektroskopiyasi, elastik qaytgan elektronlarning spektroskopiyasi, xarakterli energiya yo'qotgan elektronlar spektroskopiyasi, katta energiyali elektronlar diffraksiyasi, rentgen fazali tahlil va skanerlovchi elektron mikroskopiya haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiyaning "Atomlarni o'tqazish va ion implantatsiyasining monokristall Ge tarkibi va tuzilishiga ta'siri" deb nomlanga III-bobida Ge yuzasiga Na^+ ionlarini implantatsiya qilish va keyingi qizdirishning monokristall Ge ning elektron va kristall tuzilishiga ta'sirini, flyuoritlar yuzasida Ge nanoplyonkalarini va nanoo'lchamli NaGe_2 obyektlarini olishga, hamda hosil bo'lgan plyonkalarining tarkibi, tuzilishi, emission va optik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqotlardan oldin Ge namunalari $T = 1000 \text{ K}$ haroratda uzoq vaqt (5 soatgacha) va qisqa muddatli $T = 1200 \text{ K}$ haroratgacha o'ta yuqori vakuum 10^{-7} Pa sharoitida gabsizlantirildi. Gabsizlantirishdan keyin O va C yuza konsentratsiyalari 1 at.% gacha kamaydi.

1-rasmda qalinligi 5 monoqatlam bo'lgan Ba atomlari bilan qoplangan Ge (111) uchun $e\phi$ va σ_m qiymatlarning qizdirish haroratiga bog'liqliklari keltirilgan. Ba yupqa qatlam qalinligi ~ 5 monoqatlamni tashkil etdi. Qizdirish vaqti ~ 30 minutga teng bo'ldi. Qizdirish vaqti 40-50 minutgacha oshirilganda $T = \text{const}$ bo'lganda $e\phi$ va σ_m qiymatlari deyarli o'zgarmadi.



1-rasm. Qalinligi $\theta = 5$ monoqatlam bo'lgan Ba plyonkasi bilan qoplangan n-tipdagi Ge (111) uchun $e\phi$ va σ_m ning haroratga bog'liqligi




2-rasm. Qalinligi 5 monoqatlam Ba plyonkasi bilan qoplangan Ge ning fotoelektron spektrlariga qizdirishning ta'siri T: 1 – 293 K, 2 – 500 K, 3–750 K, 4–1000 K


Bu yerda qulaylik uchun 1 ta monoqatlam sifatida $e\phi = e\phi_{\min}$ bo'ladigan $e\phi$ qiymati olindi. Hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, $e\phi_{\min}$ bo'lganda Ba yupqa qatlamining haqiqiy qalinligi $\sim 0,7$ monoqatlamni tashkil etadi. Haroratning keyingi oshirilishi $e\phi$ qiymatning keskin oshishiga va σ_m qiymatning kamayishiga olib keldi. $T = 1000$ K bo'lganda endi σ_m va $e\phi$ qiymatlari sof Ge uchun bunday qiymatlardan unchalik farq qilmadi. Ta'kidlaymizki, Ba + Ge tizimi qizdirilganda, sirdan Ba atomlarining qatlam-qatlam bug'lanishi kuzatildi va $T = 950 - 1000$ K gacha oshirilganda Ge moddagi Ba moddaning sezilarli diffuziyalanishi kuzatilmadi. Birinchi Ba qatlami xemosorbsion holatda bo'ldi, shuning uchun nisbatan yuqori haroratlarda bir qatlamli qoplamaning bug'lanishi kuzatildi.

2-rasmida turli haroratlarda qizdirilgandan so'ng o'lchangan [Ba + Ge] birikmasi uchun fotoelektronlar spektrlari keltirilgan. Fotonlar energiyasi $h\nu = 10,8$ eV ni tashkil etadi.

Ko'rinib turibdiki, 5 monoqatlam Ba bilan qoplangan turli temperaturalarda qizdirilgan (n-tip) Ge ning UBFS spektrlari keltirilgan. Bunda 1- spektr xona haroratidagi namunaning UBFS spektrlari keltirilgan. Bu spektrdan faqat Ba ni xarakterlovchi piklarni ko'rishimiz mumkin. 2-spektrimizda 500 K gacha qizdirilgan namunaning spektrlari keltirilgan. Bunda spektrdan asosiy o'zgarishlar kuzatilgan va Ba intensivligining pasayishi va Ge piklarining intensivliklari hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin 3-spektrimizda 750 K gacha qizdirilgan namunaning UBFS spektrlari keltirilgan. Bunda spektr kengligi va yuzasi ortishini va spektrdagi Ge asosiy piklarining to'liq namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Bu 750 K gacha qizdirganimizdan keyin termoelektron chiqish ishining pasayishi bilan izohlanadi, sababi spektr yuzasi ortishi chiqish ishiga teskari proporsional bo'ladi. 4-egri chiziqda namunani 1000 K gacha qizdirilgandan keyingi UBFS spektri keltirilgan. Bunda faqat barcha Ge ga xos bo'lgan piklarni kuzatishimiz mumkin va spektr kengligining 6 eV gacha kamayganini ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. Yorug'lik o'tkazish koeffitsiyenti K ning foton energiyasiga bog'liqligi hv:
 1 – SrF₂(111); 2 – qalinligi 30 Å bo'lgan Ge plyonkasi bilan qoplangan SrF₂.



4-rasm. Energiyasi E₀=1 keV bo'lgan turli dozalardagi Ar⁺ ionlari bilan bombardimon qilingan Ge (111) ning fotoelektron spektrlari. D, sm⁻²: 1 – 0, 2 – 2·10¹⁴, 3 – 8·10¹⁵, 4 – 6·10¹⁶

3-rasmda monokritral SrF₂(111) ning va 30 Å qalinlikda Ge bilan qoplangan SrF₂ ning o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining fotonlar energiyasiga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Bunda monokristall Ge bilan qoplangan SrF₂ yuzasini Ar⁺ ionlari bilan bombardimon qilib, T = 750 K gacha qizdirish natijasida yuzada ideal kristall silliq tuzilishga ega yupqa monokristall Ge plyonkasi olindi. Olingan plyonkaning yorug'lik qaytishi R, yorug'lik o'tkazuvchanlik K va yorug'lik yutilishi T koeffitsiyentlari aniqlandi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, 1-grafikda energiyaning biz o'rganayotgan diapozondagi K deyarli o'zgarmaydi, 2-grafikda esa hv=0,4–0,6 eV da pog'onali xarakterga ega bo'ladi va unda ham deyarli o'zgarmaydi. hv=0,65–0,75 eV intervalda keskin nolgacha kamayadi, ekstrapolyatsiya o'tkazish orqali Ge plyonkasining taqiqlangan soha kengligi ~0,72 eV ekanligi aniqlandi.

Egri chiziqning bu qismini hv o'qiga ekstrapolyatsiyalash E_g taqribiy qiymatni beradi. 1-jadvalda SrF₂ va Ge yupqa qatlamlari uchun hv = 0,4 va 0,65 eV bo'lganda olingan E_g va K, P, T koeffitsiyentlarining qiymatlari keltirilgan.


1-jadvalda SrF₂ va Ge bilan qoplangan SrF₂ ning taqiqlangan soha kengligi va optik parametrlari qiymatlari keltirilgan, jadvaldan ko'rinib turibdiki, yupqa Ge plyonkasining optik parametrlari SrF₂ ning optik parametrlaridan keskin farq qiladi. Bundan yuzada yarimo'tkazgich-dielektrik geterostrukturasi shakllandi degan xulosa qilish mumkin.

1-jadval


SrF₂ va Ge/SrF₂ uchun E_g va K, R, T ning qiymatlari

Parametrlar Namuna	E _g , eV	K, % hv da:		R, % hv da:		T, % hv da:	
		0,4 eV	0,65 eV	0,4 eV	0,65 eV	0,4 eV	0,65 eV
SrF ₂	11,2	82	80	18	20	0	0
Ge/SrF ₂	0,72	74	50	26	26	0	24

4-rasmda turli dozalardagi $E_0=1$ keV energiyali Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilingan p-tip Ge(111) ning fotoelektronlari spektrlarining o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, 1-spektrda bog'lanish energiyasi $E_b = -0,8$ eV ni tashkil qiladi (ss valent elektronlarni qo'zg'alishi bilan izohlanadi) va $-1,9; -3,4; -4,9$ eV larda Ge ning piklari hosil bo'ladi. Spektrda sezilarli o'zgarishlar $2 \cdot 10^{14}$ cm^{-2} da kuzatiladi. Bunda Ge ning asosiy A pikining amplitudasi kamayadi, spektrning kengligi ortadi va holati katta energiyalar tomon (E_v valentlik zonasining yuqori chetiga) siljiydi. Bunday A pikning yonida kichik intensivlikka eng yangi pik hosil bo'ladi. D ortishi bilan bu pik yo'qolib boradi. Bu kichik dozalarda Ge atomlari tugunlarni tashlab chiqib, tugunlar oralariga joylashib oladi degan xulosani beradi.



5-rasm. Germaniy asosiy cho'qqisi energiya siljishining dozaga bog'liqligi.




6-rasm. Energiyasi $E_0=1$ keV bo'lgan turli dozalardagi Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilingan Ge(111) uchun yorug'lik o'tkazuvchanlik spektrlari.
 D, sm^{-2} : 1 – 0, 2 – $5 \cdot 10^{14}$, 3 – 10^{15} ,
 4 – $5 \cdot 10^{15}$, 5 – $6 \cdot 10^{16}$

4-rasm asosida energetik siljishning Ar^+ ionlari dozasi bog'liqlik grafigi 5-rasmda keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, A pikining eng katta siljishi 0,35-0,4 eV larda yuza qatlamlarining tartibsizlanishi hisobiga yuzaga keladi.


6-rasmda turli $E_0=1$ keV dozalardagi Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilingan Ge(111) uchun yorug'lik o'tkazuvchanlik spektrlari tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, Ge(111) uchun $E_g = 0,73$ eV bo'ladi. Kichik dozalarda ($D \leq 10^{15}$ sm^{-2}) energiya $h\nu$ ning barcha sohalarida o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti K kamayishi, spektr tikligining kamayishi kuzatiladi va $h\nu = 0,5$ eV sohada yorug'likni qo'shimcha yutilishidan piklar paydo bo'ladi. Dozaning oshishi bilan yangi pikning intensivligi sezilarllari o'zgarmaydi, lekin uning yarim kengligi ortadi va $D \geq 8 \cdot 10^{15}$ sm^{-2} dan ortganda bu piklar yo'qoladi. $D = 6 \cdot 10^{16}$ sm^{-2} bo'lganda E_g qiymat $\sim 0,8$ eV gacha ortadi.

D qiymatning keyingi ortishida K ning qiymat biroz pasayadi va $D = D_{to'y}$ da esa $\sim 70\%$ ni tashkil qiladi. Olingan natijalarni quyidagicha tushuntirish mumkin. Kichik dozalar bilan bombardimon qilish yuza osti qatlamlarining tartibsizlanishiga olib keladi, ya'ni kristall panjara tugunlarida joylashgan Ge ning atomlari orasiga joylashib oladi. Bu esa $h\nu = 0,5$ eV qiymatida yorug'likning qo'shimcha yutilishiga olib keladi. Dozaning ortib borishi ionlanish darajasining va yuzaning tartibsizlanishini ortishiga olib keladi. $D = 6 \cdot 10^{16}$ sm^{-2} da esa yuzada to'liq tartibsizlanish kuzatiladi.

7-rasmda $D = 6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ bo'lganda qizdirishdan oldin va keyin $E_0 = 0,5 \text{ keV}$ energiyaga ega bo'lgan Na ionlari bilan implantatsiya qilingan p-tipdagi Ge (111) piki uchun fotoelektronlarning energiya bo'yicha taqsimoti tasvirlangan.



7-rasm. Ge(111) uchun fotoelektron spektrlar: 1–toza Ge(111), 2– $E_0=0,5 \text{ keV}$, $D=D_{to'y}$ bo'lgan Na^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan Ge(111), 3– $T=850 \text{ K}$ da qizdirilganda fotoelektron spektrlar



8-rasm. Namunadan o'tgan yorug'lik o'tkazuvchanligining K fotonlar energiyasiga $h\nu$ bog'liqligi: 1–Ge (111); 2 – NaGe_2/Ge plyonkalari

Ko'rinib turibdiki, ionli implantatsiya qilish spektrning tuzilishi va shaklining sezilarli o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar asosan yuzadagi tartibsizliklar nostexiometrik Na_xGe_y germanidlarning hosil bo'lishi va kimyoviy bog' hosil qilmagan Na ba Ge atomlari hisobiga sodir bo'ladi.

8-rasmdan ko'rinib turibdiki, Ge (111) uchun $E_g=0,71 \text{ eV}$, NaGe_2 uchun $E_g=0,45 \text{ eV}$ bo'ladi. $K(h\nu)$ spektri bo'yicha $R=1-K$ formulaga muvofiq yorug'lik nurini qaytarish koeffitsiyentini baholash mumkin. K qiymati $K(h\nu)$ to'g'ri chiziqli sohasidan olinadi. $R_{\text{Ge}}=0,22$, $R_{\text{NaGe}_2}=0,26$ ekanligini ko'rish mumkin. Bu spektrlarni tahlil qilish asosida toza va ionli implantatsiya qilingan Ge moddasining asosiy makroskopik parametrlari aniqlandi (2-jadval).


2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ionli implantatsiya qilingan Ge moddasida E_c yaqinida tor n-tipdagi zonaning hosil bo'lishi o'rtacha E_g qiymatini $\sim 0,2 \text{ eV}$ gacha kamayishiga olib keladi. Yuzaga yaqin qatlamlarning xususiyatlari metallarga xos bo'lgan xususiyatlarga yaqinlashadi. qizdirishdan keyin $E_g = 0,45 \text{ eV}$ ga ega bo'lgan tor zonali p-tipdagi NaGe_2 yarim o'tkazgich shakllanadi.

2-jadval

$E_0 = 0,5 \text{ keV}$ va $D = 6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ bo'lgan Na^+ ionlari bilan legirlangan Ge(111) ning qizdirishdan oldin va keyingi zona tuzilishining asosiy parametrlari


Parametrlar	Ge	$\text{Na}^+ \rightarrow \text{Ge}$	
		$T = 300 \text{ K}$	$T = 850 \text{ K}$
Φ	5.3	2.4	3.85
φ	5.0	2.4	3.8
χ	4.6	2.4	3.4
E_g	0.7	0	0.45

9-rasmda $E_p = 1 - 250$ eV sohada $D_{to'y}$ to'yinish dozasida $E_0=1$ keV ga ega bo'lgan Ar^+ va Na^+ ionlari bilan bombardimon qilingan va "toza" Ge uchun $-dR/dE_p$ nisbatning E_p qiymatga bog'liqligi keltirilgan. Ar^+ uchun $D_{to'y} \sim 4 \cdot 10^{16}$ sm⁻² ni, Na^+ uchun $6 \cdot 10^{16}$ sm⁻² ni tashkil etdi. Toza Ge spektri butun E_p soha bo'ylab qator maksimumlar va minimumlar aniqlanadi. Ar^+ va Na^+ ionlari bilan bombardimon qilingandan so'ng, barcha difraksion maksimumlar silliqanadi, bu sirtga yaqin qatlamlarning to'liq amorflashishiga bog'liq.




9-rasm. $E_p = 1 - 250$ eV sohada $D_{to'y}$ to'yinish dozasida $E_0=1$ keV ga ega bo'lgan Ar^+ (2) va Na^+ (3) ionlari bilan bombardimon qilingan va "toza" Ge (1) uchun dR/dE_p nisbatning E_p qiymatga bog'liqligi

10-rasmda qizdirilgandan oldin va keyin $D=8 \cdot 10^{16}$ sm⁻² bo'lganda $E_0=1$ keV ga ega Ar^+ , Na^+ va O^+_2 ionlari bilan bombardimon qilingan Ge ning M_{45} EQE spektrlari keltirilgan, ko'rinib turibdiki, Ar^+ ionlari bilan bombardimon qilingandan keyin Ge eng yuqori qiymatining M_{45} holati sezilarli o'zgarmaydi; Na^+ ionlari bilan implantatsiya qilishda esa eng yuqori qiymatning M_{45} holati kichik energiyalar tomoniga, O^+_2 ionlari bilan implantatsiya qilishda esa katta energiyalar tomoniga siljiydi. Bu Ge+Na turdagi bog'lanishlarning hosil bo'lishi elektronlarning Na atomidan Ge atomiga o'tishi bilan birga bo'lishiga bog'liq, bu esa matritsa elektronlarining bog'lanish energiyasini kamayishiga olib keladi. Germaniy oksidi bo'lganda, aksincha, germaniy o'z elektronlarini kislorodga beradi va natijada germaniy elektronlarining bog'lanish energiyasi ortadi.



10-rasm. $E_0 = 1 \text{ keV}$ va $D = 8 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ da Ar^+ , Na^+ va O_2^+ ionlari bilan bombardimon qilingan Ge uchun M_{45} EQE spektrlari, qizdirishdan oldingi va keyingi holatlar



11-rasm. $E_0 = 1 \text{ keV}$ energiyali $D = 6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ dozadagi Na^+ ionlarini implantatsiyasi germaniy M_1M_3V sathi uchun OJE-pikining shakli va holatiga ta'siri: toza Ge(111)-(1); Na^+ ionlari bilan implantatsiya qilingandan keyin-(2); $T=850 \text{ K}$ gacha qizdirib ishlov berilgandan keyingi-(3)

Kimyoviy siljish qiymatiga asoslanib, quyida kation tomonidan anionga o'tkazilgan Δq zaryad miqdorini hisoblash uchun asosiy formulalar va ularning izohlari keltirilgan

$$\Delta q = \frac{\Delta E}{e^2} (A(r)/r - \alpha/R)$$

bu yerda ΔE – asosiy sathning kimyoviy siljish qiymati, r - kationning ion radiusiga yaqin qiymati, R - kation va anion orasidagi masofa, $A(r)$ – elektronning zaryad zichligini taqsimlanishini hisobga oluvchi geometrik omil; α - Madelung doimiysi. $A(r)$ qiymati odatda quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A(r) = (1 - \Gamma^2) / (1 - \Gamma^3)$$

Elektron zaryadning atomlarda taqsimlanish shakli asosida amalga oshirilgan $\Gamma=0,5$. I bog'lanishning ionlik darajasi Poling formulasi yordamida baholandi:

$$I = \frac{\chi_{Ge} - \chi_{\text{ЛЭ}}}{|\chi_{Ge} - \chi_{\text{ЛЭ}}|} \left[1 - e^{-\frac{1}{4}(\chi_{Ge} - \chi_{\text{ЛЭ}})^2} \right]$$

Bu yerda χ_{Ge} – Ge ning elektronga moyilligi, $\chi_{\text{ЛЭ}}$ – NaGe_2 yoki GeO_2 ning elektronga moyilligi. Hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

